

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV**

Raximberganova Sohiba Jamol qizi
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Mavlonberganova Ro'za Oybek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

Annotasiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy innovatsion faoliyatlarnimaktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash haqida ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Shuningdekkompetensiya, tayanch kompetensiyalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limiy faoliyatdagi mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, kompetensiya, tayanch kompetensiyalar, faoliyat, ta'limiy faoliyat, tizim,yondashuv, shaxs, kommunikatsiya, ijtimoiy, bilish va “Men” konsepsiyasi,

Аннотация

В данной статье подробно описаны особенности компетентностного подхода в организацииобразовательного процесса в системе дошкольного образования и сведения об использованиисовременной инновационной деятельности в организациях дошкольного образования. Такжераскрываются компетентность, основные компетенции и сущность образовательнойдеятельности в организациях дошкольного образования.

Ключевые слова: Дошкольное образование, компетентность, базовые компетенции, деятельность,образовательная деятельность, система, подход, личность, общение, социальное, познаниеиконцепция «Я».

Abstract

This article describes in detail the specific features of the competence approach in the organizationofthe educational process in the preschool education system and information about the use of moderninnovative activities in preschool education

organizations. Also, competence, basic competences and the essence of educational activities in pre-school education organizations are revealed.

Keywords Preschool education, competence, basic competencies, activity, educational activity, system, approach, person, communication, social, cognition and "I" concept.

Kirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy, samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va muhim tayanch kompetensiyalari asosida ta'limiy faoliyat to'g'ri tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyidagi keltiriladigan tayanch kompetensiyalarni dolzarbligini asoslash va mazmunan ta'lim jarayonida integratsiya qilish maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshishga xizmat qiladi. Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi hamda atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Shaxsiy kompetensiya (“Men” konsepsiyasini yaratish) – shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog'lom turmush tarzini amalda qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish qobiliyati; Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalana olish jarayonlari kiradi. Yuqoridagi keltirilgan kompetensiyalar mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga kompetensiyaviy yondashuv, ularni jamoaviy hamkorlikka undash, bola shaxsini hurmat qilish, erkin ijodiy o'zini-o'zi ko'rsata olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish asosida shakllantirilib boriladi. Kompetensiyalarni bola maktabgacha yosh davrida egallab borishini tarbiyachi-pedagoglar kuzatib nazorat qilib boradilar va shu orqali bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi belgilanadi shunday ekan, bola maktabgacha ta'lim tashkilotida har tomonlama maktabga tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida

ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keying bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari
- bilish jarayonining rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish ta'lim sharoitlariga qarab o'zaro bog'liqlik, xilma-xillik va moslashuvchanlik asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yil fasllari va ob-havo sharoitlarini ham hisobga olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish davlat talablarini, shuningdek, davlat o'quv dasturini amalga oshirishga yordam beradigan qisqa muddatli (haftalik) va uzoq muddatli (yillik) rejalarni yaratishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida ham tarbiyachilar va bolalar ta'limiy faoliyat olib bormoqdalar.

- Qurish-yasash va matematika markazi
- Til va nutq markazi
- Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi
- San'at markazi
- Ilm-fan va tabiat markazi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida tarbiyachilar va bolalar ta'limiytarbiyaviy faoliyatni ijodiy tashkil etadilar va muntazam rivojlantirilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 802-son 2020 yil 22-dekabr (1-2 ilova)
2. F.R.Qodirova “Maktabgacha pedagogika” Darslik, T-2019 yil
3. Takomillashtirilgan ilk qadam davlat o‘quv dasturi T.:2022 yil



**Research Science and
Innovation House**